

## FUQARO MUHOFAZASI BO'LIMINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Sarvarbek Isamov Mamurjonovich**

“Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnalogiyalar” instituti o'qituvchisi

**Yuldashev Akmaljon Mexmonovich**

“Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnalogiyalar” instituti o'qituvchisi

**Sofiyev Saidvoisxon Saidmurotxonovich**

“Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnalogiyalar” instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ta'lism tarbiya jarayonini yanada takomillashtirishda ta'lism mazmunini isloh qilish, uni jahon ta'lism standartlariga muvofiqlashtirish katta ahamiyatga ega. Shu ma'noda ta'lism mazmunini va tarkibiy tuzilishini tanlash amaliy ahamiyatga ega bo'lgan murakkab masaladir.

**Kalit so'zlar:** Fuqaro muhofazasi bo'limi, metodika, ta'lism, metodologik asos.

Bu yerda o'quv jarayonining mohiyatidan kelib chiqib, ta'lism jarayonidagi fanni o'qitishda talabalar uchun umumiy bo'lgan fanni metodologik asoslarini talabalarga singdirishda fanning tarkibiy tuzilishini muhimligini qayd qilib o'tmoqchimiz. Shu bilan birga talabalar uchun fan mazmuni fanning o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda talabalar ilmiy dunyoqarashlarini mukammal bo'lishiga, dalillarni ilmiy taxlil qila olishiga, mustaqil tafakkur, fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashiga, ulardan amalda foydalanish malakalarini egallashga qaratilgan mantiqiy tarkibiy tuzilishni hosil qilishi kerak. Talabani dunyoqarashi uning obektiv reallikga shunchalik munosabati bo'lmasdan, bu uning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy-siyosiy hayotga munosabati, tabiat qonuniyatlarini mohiyatini anglashi, ularni amalda qo'llay olishidir.

Ta'limda o'quv dasturlari va darsliklarning mazmunini takomillashtirish, ayniqsa, uning yangi mazmundagi tarkibiy tuzilishini aniqlash, o'quv materiallarini har bir bo'lism va mavzularini maqsadga muvofiq joylashtirilganligini qayta qarab chiqish, ta'lism va tarbiya jarayonining asosiy omillaridir[7]. Bo'lajak mutaxasislarga xayot faoliyatlarida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablarini, xususiyatlarini, oqibatlarini va ularni yo'qotish uslublarini, xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, tabiy texnogen va ekologik tusdagi favqulotda vaziyatlarda axolini ximoya qilish, xamda jaroxat olganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalarini o'rganishdan iborat.

Fanning vazifasi-insonning xayot faoliyatida yuzaga keladigan xavflarni o'rganish, ularni idenifikatsiyalash, ishlab chiqarishda muqobil muxitni yaratish, texnosferada kasb kasalliklarini kamaytiradigan va baxtsiz xodisalarini oldini oluvchi tadbirlar, shuningdek tabiiy ofat, avariya va xalokatlardan ximoyalanish usullariga o'rgatish, shikastlangan o'choqlarda axolini qutqarish va tiklov ishlarini o'tkazish, yong'inga qarshi xavfsizlik choralarini ko'rish, jaroxat olganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va boshqa muxum vazifalarni bajara oladigan bilim, ko'nikma va kasbiy malakaga ega insonni tarbiyalashga qaratilgan.




Bu fan xavfsizlikning maxsus muammolarini hal qilmaydi. Bu ilmiy-uslubiy fan bo'lib, xavfsizlikning maxsus fanlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Hayot faoliyati xavfsizligi masalalari bilan qadim zamonlardan beri ko'p ulug' allomalar shug'ullanib kelishgan. Masalan, Gippokrat, Aristotel, Agrikola, M.V.Lomonosov, Kirpichev.V.L., Nikolskiylar ham xavfsizlik muammosi bilan shug'ullaniganlar. Ulug' o'zbek hakimi Abu Ali ibn Sino o'z ishlari bilan gigiyena faniga asos solgan. Texnosfera rivojlanishiga xavfsizlik muammosi rivojlanishiga akademik V.A.Legasov o'z ilmiy ishlarini bag'ishlagan.

Hayot faoliyati xavfsizligi fanining maqsadi va asosiy vazifasi iqtisodiy masalalarni atrof-muhitni muhofaza qilish bilan chambarchas bog'langan holda olib borishdir.

Fanning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Mehnat faoliyati xavfsizligi talabi huquqiy savodxonlikka o'rgatish
2. Mehat faoliyati xavfsizligi bo'yicha yo'l-yo'riq berish va yo'riqnomalar tayyorlash.
3. Mehnat shartnomasi tushunchalari va unda mehnatni muhofaza qilish tamoyillarini o'rganish
4. Mutaxassisni ishlab chiqarish sharoiti bilan organizm faoliyatini o'zaro ta'sir etish jarayonlarini o'rganishni nazariy va amaliy tomondan tayyorlash.



1-rasm. Hayot faoliyati xavfsizligi fanini vazifalari

O'quv materialining mantiqiy tarkibiy tuzilishi deyilganda, odatda, o'rganiladigan o'quv fanlaridagi tushuncha va fikr -muloxazalarni ichki aloqalari va ularning bir-biriga ta'siri, bir-birini taqozo qilishi tushuniladi.

Hayot faoliyati xavfsizligi fani mehnatni muhofaza qilish, atrof muhitni muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi fanlari asosida tashkil qilingan.

Yashirin xavflar amalga oshishi uchun aniq shartlar bo'lishi lozim. Bu shartlar sabab deb ataladi.





2-rasm. Hayot faoliyati xavfsizligi fanidagi umumiylar masalalar

Hozirgi zamон fan va texnikasining o'sishi, yangi texnologiya va mashina-mexanizmlarning joriy etilishi ishlab chiqarishda ishlayotgan har bir xodimning yuqori malakali, texnika qonunlarini tushunadigan va unga amal qiladigan bo'lishlarini taqozo qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lif to'g'risida Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr. O'RQ-637-soni
2. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF - 4947 - son Farmoni. 2017 yil 7 fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-soni Farmoni. 2019 yil 8 oktyabr.
4. Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3151-soni qarori. 2017 yil 27 iyun.
5. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI VA MEHNAT MUHOFAZASI S.M.ISAMOV darslik "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus talim vazirligining 2022-yil 30-dekabr 429-soni"
6. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI S.M.Isamov o'quv qo'llanma "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus talim vazirligining 2021-yil 25-dekabr 538-soni"

